

Yaxshi niyat yarim davlat



Respublika bolalar kutubxonasi

Bolalar adabiyoti jurnalidan

Yaxshi niyat yarim davlat

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, niyati buzuq, hammani o'zidan bezor qilgan bir o'g'ri bor ekan. U o'g'ri-likdan topgan pulini qimor o'ynab yutqazar, hamma vaqt yolg'onni do'ndirib, kishilarni aldab ketar ekan. Bir vaqt uning ishi yunshmay qolibdi. Qarasa, hamma o'zini undan chetga oladigan bo'lib qolibdi.

Bir kuni odamlardan shu yurtda Xotami Toyga o'xshagan bir kishi borligini va uning kim nima so'rab borsa, surishtirmay so'ragan narsasini berishini eshitib, uning uyiga boribdi. Borsa, oqsoqol bir nuroniy odam ko'rpachada o'tirgan emish. Salom berib kinbdi. Saxiy odam ham o'midan turib kutib olibdi. Yaxshilab qomini to'yg'azibdi-da,

keyinqanday yumush bilan kelganligini so'rabdi. Shunda o'g'ri yigit:

– Men sizdan uch ming so'm pul so'rab keldim, albatta, bir vaqti bilan qaytaraman, – debdi.

– Uch ming desang uch ming bor, bolam, – deb saxiy odam uch ming so'mni sanab yigitga benbdi.

Yigit pulni olishi bilan: «Endi senga pulni qaytarib bo'pman, topar oyda olarsan!» – deb ko'nglidan o'tkazibdi-da, jo'nab ketibdi. Biroz yurgandan keyin pulni sanab ko'rmoqchi bo'lib, cho'ntagini paypaslabdi. Qarasa, pul yo'q. Tushirib qo'ygan bo'lsam kerak, deb o'ylabdi. Bu voqeani o'ziga o'xshagan bir do'stiga aytgan ekan, u:

– E, yana bor, u laqmaning yana uch mingini olmaysanmi? – debdi.

Yigit saxiy odamning oldiga kelibdi.



– Menga yana uch ming so'm kerak bo'lib qoldi, men bir vaqti bilan hammasini qaytaraman, – debdi yigit.

– Mayli, yana uch mingni ol, – debdi saxiy odam. Yigitga uch ming so'm pulni yana sanab beribdi. Yigit yana buzuq niyatini ishga solib, pul berganni ichida so'kib jo'nab ketibdi. Bir necha daqiqa yo'l yurgach, cho'ntagiga qo'lini solsa pul yana yo'q emish. Yigit hayron bo'libdi. Nima balo pulni sanab oldim, cho'ntagimga soldim... Yigit xafa bo'libdi, oldiga o'ziga o'xshagan do'stlari kelgan ekan, ularga ham qaramay yotavenddi. Axiyri bir cholning oldiga borib bo'lgan ishlarni aytib beribdi. Shunda chol yigitga:

– Bolam, «Yaxshi niyat – yarim davlat», deb bejiz aytilmagan. Niyating yomon bo'lsa, qo'lingdagini ham oldirasan. Sen hamma yomonliklaringni yerga ko'm, yaxshi odamlar bilan bo'l. Shunda sen baxtli bo'lasan. Sen o'sha odam oldiga borib yana pul olishing mumkin. Ammo niyating xolis bo'lsin, – deb maslahat beribdi. Yigit: «Borsammi, bormasammi?» – deb o'ylanib, bir necha kunni oradan kechirib, bir kuni yana pul so'rab beribdi.

Nuroni odam ham: «Kel, o'g'lim, kel, kel. Yaxshi kelding, bir yordamlashib yuborsang bo'lardi,» – deb yigitning oldiga bir necha ming pulni tashlabdi. – Bularni sanab ber,» – deb o'zi boshqa xonaga kirib ketibdi. Yigit ko'nglida: «Nega mening oldimga shuncha dunyoni to'kib ketdi? Mendan gumon ham qilmadi, o'g'irlab ketar deb ham o'ylamadi,» – degan gaplarni o'tkazib, pullarni taxlab, sanabdi. Lekin bir dirhamni ham cho'ntagiga solmabdi. Halol sanab, niyatini ham buzuq xayollarga burmabdi. Bir necha daqiqadan so'ng uy egasi kelib: «Xush keldingiz, o'g'lim, ovqatdan oling, choy iching, dam oling,» – deb yigitning qomini to'yg'azib, dam oldirib, keyin so'rabdi:

– Xo'sh, xizmat?

– Ota, ozgina muhtojlik bo'ldi. Biroz pul berib tursangiz, men sizga keyin qaytarib bersam, – debdi yigit.

– Bolam, istaganingni aytib, keragini sanab olaver, – debdi saxiy odam va yigitning oldiga bir dasta pul qo'yibdi.

Yigit to'rt ming so'm pulni sanab olibdi-da, xayr-xo'shlashib ketibdi. O'zi-cha o'ylabdi: «Bu odamning oldiga uch marta keldim va har safar ham ko'nglinga siqqan pulni oldim. Lekin biror marta mening na ismimni, na turar-joyimni so'radi. Bunchalik saxiy, yaxshi odam bo'larkan-da. Agar o'lmasam, olgan o'n ming so'm pulimni bir yo'lasida ustida sovg'asi bilan qaytaraman, shu nuroniy kishiga bundan keyin bolasiday xizmat qilganim bo'lsin...»

Bir necha daqiqa yo'l bosgandan keyin yana qo'rqa-pisa cho'ntagiga qo'lini solibdi. Qarasa pul turganmish. Sevinganidan bozorga boribdi-da, bir kosibga:

– To'rt ming so'm pulim bor, menga bir hunar o'rgating. Hunarmand bo'lgunimcha shu pulimni ishlatib tur-ing, – debdi.

Kosib:

– Men seni boshqa bir hunarmandga beray, lekin pulingni o'zim ishlatay. Bir yildan keyin pulingdan qancha foyda chiqsa, hammasi o'zingga buyursin, – deb yigitni gilamdo'zga shogird qilib beribdi.

Yigit bir yilda gilam to'qishni o'rganibdi. Kosib esa yigit bergan to'rt ming so'm puldan yigirma besh ming so'm foyda ko'ribdi. Bir kuni yigitni oldiga chaqirib:

– Bolam, men sen bergan to'rt ming so'mdan yigirma besh ming so'm foyda ko'rdim. Sen shu pulni ol, – deb yigitga pullarni beribdi.

Yigit pulning yarmini olib, yarmini kosibga qaytaribdi-da:

– Agar siz meni gilamdo'zga shogird qilib bermaganingizda men hunar o'r-



ganmagan bo'lardim. Hozir shaharning eng mohir gilamdo'zlaridan biriman. Xalq meni hurmat qiladi. Men baxtimdan shodman. Shuning uchun menga yarmi bo'ladi, – debdi.

Kosib ham yigitdan xursand bo'libdi. Yigit pulni olib, o'zi hunar qilib to'qigan bir kichik gilamni ko'tanb saxiy odamning oldiga boribdi.

– Men sizdan uch yo'lasi pul oldim va hammasi o'n ming so'm pul bo'ldi, mendan shu omonatingizni oling, – debdi.

– Mendan, – debdi nuroniy odam, – to'rt ming so'm pul olgansiz, olti ming so'm pul esa siz eshikdan chiqar vaqtingizda hovlinga tushib qolgan edi. Faqat so'nggi olgan pulingizni olaman.

Yigit so'rabdi:

– Nega axir? Men sizdan olib cho'ntagimga soldim, eshikdan chiqdim, qanday tushib qoldi?

– Bolam, avvalgi ikki yo'la pul olganingizda niyatingiz yomon edi, yomon niyat bilan kelgandingiz, shuning uchun pul sizga yuqmadi. Keyin sizda yaxshi niyat paydo bo'lib keldingiz va olgan pulingiz foyda berdi. Bolam, niyatingizdan baraka toping, hamisha yaxshi niyat bilan birovning hovlisini bosing, – debdi va yigitdan faqat to'rt ming so'm pulni olibdi. Yigit esa o'zining hunaridan sovg'a qilib atagan gilamni tutqazibdi. Nuroniy odam gilamni olib, yigitning peshanasidan o'pib, fотиha beribdi.

Shunday qilib niyatini yaxshi qilgani uchun yigit boyibdi va hammaning hurmatiga sazovor bo'lib yashabdi. U hozir ham mehnat qilib yaxshi yashayotgan emish.

